TASDIQLAYMAN
“Universal Shingarf” MCHJ
direktori F.Djalilov
Djalilov Fazlitdin Rahmatulloyevich
“____” _____ 2026-yil
Muhr: _____

SIO 2026 — SAMARKAND INTERNATIONAL OLYMPIAD NIZOMI (LOYIHA)

I. UMUMIY QOIDALAR

Ushbu Nizom “Universal Shingarf ” MCHJ markazi tomonidan tashkil etilayotgan **SIO — Samarkand International Olympiad** (keyingi o‘rinlarda — “Olimpiada”)ni o‘tkazish tartibi, maqsadi va ishtirok etish shartlarini belgilaydi.

Olimpiada **2026-yilning iyun, iyul, avgust oylarida uch boqsichda bo’ladi.** Olimpiadaning asosiy maqsadlari:

- o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish;
- eng saralangan o‘quvchilarni xalqaro final bosqichiga tayyorlash;

II. OLIMPIADANING YO‘NALISHLARI

Olimpiada 1–9-sinflar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Matematika fanidan bo’ladi.

III. ISHTIROKCHILAR

Olimpiadada umumta’lim maktablarining **1–9-sinf o‘quvchilari** ishtirok etishi mumkin.

- Ishtirokchilar yosh va sinf bo‘yicha toifalarga ajratiladi.
- Har bir ishtirokchi oldindan ro‘yxatdan o’tishlari va olimpiada nizomi bilan tanishish shart
- Olimpiada 3 bosqichda bo’ladi
- 1-bosqich saralash online
- 2-bosqich yarim final
- 3-bosqich final

IV. SARALASH, YARIM FINAL VA FINAL BOSQICHINI O‘TKAZISH TARTIBI

O’quvchilar ro’yxatdan o’tgandan so’ng iyun oyida 1-bosqichda online ishitirok etishadi. Ushbu bosqichda jami ishtirokchilarning 70 % dan oshiq ball to’plagan **o‘quvchilar** “SIO 2026” Olimpiadasining **yarim final bosqichiga** yo‘llanma oladi.

Yarim final ishtirokchilar olimpiada fondi uchun 169000 so’m badal to’lovi to’ladydi. 2-bosqich yarim finalda o’quvchilar ofline ishtirok etishadi. Final bosqichi badal to’lovlari haqida olimpiadan bir oy oldin e’lon qilinadi.

Savollar maxfiyligi:

- Savollar maxfiylik tartibiga muvofiq yopiq platformada saqlanadi.

- Savollar faqat test o‘tkaziladigan kuni ochiladi.

Natijalar:

- Natijalar SIO Rating System orqali qayd etiladi.
- O‘quvchilar to‘plagan ballar asosida bosqichma-bosqich reyting ro‘yxatiga kiritiladi.

Yarim final natijalari:

Yarim finalning sinflar kesimida eng kuchli 30 nafar o‘quvchisi Ambassador maqomini oladi va SIO 2026 final bosqichida ishtirok etadi. Final bosqichida Samarqand shahri va Malayziyani Kuala Lumpur 29-avgustda bo’lib o’tadi.

V. BAHOLASH VA REYTING TIZIMI

Jami savollar soni 30 ta bo‘lib, A, B, C darajadagi savollar nisbati tashkilotchilar tomonidan belgilanadi. Barcha savollar test shaklida bo‘lib, barcha sinflar yarim final va final bosqichlari saovollari uchun 90 daqiqa vaqt beriladi.

Natijalar 72 soat ichida tekshiriladi va SIO Rating System’ga kiritilib, SIO rasmiy kanalida e’lon qilinadi.

VI. MUKOFOTLAR

Ishtirokchilar quyidagi mukofotlar bilan taqdirlanadi:

- **Diplom** (1–3-o‘rinlar). Diplomlar qog‘oz shaklida taqdim etiladi.
- **Sertifikat** (barcha ishtirokchilarga). Sertifikatlar elektron shaklda beriladi.
- **Esdalik sovg‘alari** — yarim final va final bosqichlari ishtirokchilariga beriladi.

SIO 2026 olimpiadasi final bosqichida jami olimpiada ishtirokchilarining eng yuqori ball olgan bir nafar o’quvchi Oliy sovrin Spark avtomashinasi bilan taqdirlanadi.

Bundan tashqari 1-2-3 o’rin sohiblariga estalik sovg’alar, sertifikat va SIO2026 ning rasmiy Ishtirokchilarning ballari teng kelib qolgan taqdirda yozma shaklda masalalar beriladi.

VII. TASHKILIY MASALALAR

Olimpiadani o‘tkazish va nazorat qilish uchun SIO olimpiada tashkiloti huzurida **Tashkiliy qo‘mita** tuziladi.

Tashkiliy qo‘mita quyidagi vazifalarni bajaradi:

- fan komissiyalarini shakllantirish;
- test materiallarini tayyorlash va himoyalash;
- baholash tizimini yuritish;
- yakuniy natijalarni e’lon qilish.

VIII. YAKUNIY QOIDALAR

- Ushbu Nizom “Universal Shingarf” MCHJ tomonidan tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.
- Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar tashkiliy qo‘mita tomonidan kiritiladi.
- Nizom nusxalari barcha ishtirokchi ta’lim muassasalariga yetkaziladi.

Qabul qiluvchi tashkilot:
“Universal Shingarf” MCH
O‘zbekiston Respublikasi, Samarqand viloyati

Tasdiqlangan sana: 20/05/2026